

Payg'ambarlar qissasi: Baytul Maqdis



12:30 / 18.10.2018 17210

16

Ibrohim (a.s.)ning yana Sora ismli ayollari ham bor edi. Ibrohim (a.s.)ning Soradan boshqa xotinlaridan Ishaq ismli o'g'illari ham bor edi. Ibrohim (a.s.) Ishaq bilan Shom (hozirgi Suriya)da yashardilar. Ishaq otasi va akasi Makkada qurganlari kabi Shomda Alloh uchun uy qurdi. Ishaq Shomda qurgan masjid Baytul Maqdisdir. O'sha Masjidul Aqsoning atrofiga Alloh baraka yog'dirdi. Alloh Ismoil avlodlariga baraka yog'dirgani kabi Ishaq avlodlariga ham baraka yog'dirdi. Ulardan payg'ambarlar, podshohlar yetishib chiqdi. Ishaqning Ya'qub ismli o'g'li bo'lib, u ham payg'ambar edi. Ya'qubning o'n ikki o'g'li bo'lib, ulardan biri Yasuf ibn Ya'qub edi. Yusuf haqida Qur'onda ajoyib qissa bayon qilingan.